

QISHLOQ XO'JALIGI HAYVONLARINING KINDIK DABBASINI OPERATSIYA YO'LI BILAN DAVOLASH

*Arziyev X.Y. - Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali.*

“Veterinariya meditsinasi va oziq – ovqat xavsizligi”

kafedrasida katta o'qituvchi, v.f.n.

E- mail: arziyevxidir70@mail.ru

Arislanbekov I.A. – SamDVMCHBU Nukus filiali talabasi.

E- mail: ilhambekarislanbekov65@gmail.com

Abatbaeva A.M. – SamDVMCHBU Nukus filiali talabasi.

E- mail: abatbaevaaygul2301@gmail.com

Annotasiya: Ushbu maqoladan qishloq xo'jaligi hayvonlarida uchiraydigan kindik dabbasini operatsiya yo'li bilan davolash tajribalari bayon qilingan. Qoraqolpog'iston Respublikasi Nukus shahrida kindik dabbasiga chalingan bir yoshdagi yirik shoxli mol operatsiya yo'li bilan davolanganligi keltirilgan. Hayvonlarda mahsuldorlik va ishtahaning pasayishi, kuchli og'riq bo'lib hayvon kattargan sari dabbaning hajmi ham kattarib boraveradi.

Kalit so'zlar: dabba, etiologiyasi, kechishi, klinik belgilari, davolash, yod, navokain, zeyleseym, stimulovalchi preparatlar, gentamitsin.

Summary: The article describes the experience of surgical treatment of umbilical hernia in farm animals. In the city of Nukus Republic of Karakalpakstan, one-year-old snow cattle affected by umbilical ringworm underwent surgical treatment. As the animal grows, the size of the dabba increases due to a decrease in productivity and appetite, and severe pain.

Key words: skin rash, etiology, course, clinical manifestations, treatment, iodine, navocaine, ceileSAFE, stimulants, gentamicin.

Kirish

Qishloq xo'jalik hayvonlaridan yuqori va sifatli mahsulot olish uchun avvalo hayvonlarda uchiraydigan kasalliklarni oldini olish va davolash juda muhim hisoblanadi. Chunki kasal mollardan ko'zlangan muqdorda mahsulot olishning iloji yoq. Hayvonlarda yuqimsiz, yuqimli, invazion, akusher ginekologik va xirurgik kasalliklar uchiraydi. Bu kasalliklarni o'z vaqtida davolash veterinariya vrachlarini oldidagi katta muammolardan hisoblanadi. Xirurgik kasalliklar orasida qora mollarda ko'pincha dabbalar ko'p uchiraydi. Buning natijasida hayvonlar o'sishdan qoladi, ichaklarning qorin devoridan tashqariga yani teri ostiga chiqishi natijasida, qorinning pastki qismi osilib qoladi va hazim tizimining ishtan chiqishi oqibatida hayvon nobud

bo'ladi. Kindik dabbasi ko'pincha cho'chqa va yosh buzoqlarda uchraydi. Undan kelib chiqadigan iqtisodiy zarar sezilarli bo'ladi. Kindik dabbasi hayvonning ichki a'zolar qorin pardasining pariyetal qavati bilan birgalikda qorin bo'shlig'idan teri ostiga yoki boshqa to'qimalar orasiga va bo'shliqlarga siljishiga aytiladi. Dabbaning anatomik elementlariga dabba xalqasi, dabba xaltasi va dabba ichidagi a'zolar kiradi. Dabba xalqasini patologik kengaygan tabiiy yoriq (kindik xalqasi, chot kanali) yoki yorilgan qorin devori hosil qiladi. Dabba xalqasi kichik yoki keng bo'lishi mumkin va ko'pincha u vaqt o'tishi bilan kengayadi. Dabba xaltasi qorin pardasi va fassiyadan hosil bo'lib kirish joyi, bo'yni va tanasidan iborat. Dabba uzoq vaqt davolanmasa ichida biriktiruvchi to'qimali to'siqlar (bitishmalar) hosil bo'ladi.

Dabbalar tasniflanishi: anatomik joylashishi bo'yicha – kindik, chot, oraliq va boshqa; kelib chiqishi bo'yicha – tug'ma (tabiiy yoriqlarning patologik shakllanishi, masalan chot kanalining o'ta kengligi) va orttirilgan (qorin devorining shikastlari, tug'ishda kuchli zo'riqish, yiqilish, og'ir ish bajarish, ich ketishi) bo'ladi.



Etiologiya. Ko'b mualliflar fikricha bu irsiy nuqson bo'lib, ona qornida bo'lgan xomilada keng kindik halqasi hosil bo'lishi bilan bog'liq. Undan tashqari bunday hayvonlarda kindik venasi, kindik arteriyasi va uraxus sekin redusiyaga uchraydi.

Ularning qoldiqlari bo'lmish kindik – jigar va kindik – pufak kabi paychalar 5 oylik kasal hayvonlarda ham topilgan. Undan tashqari bu kasallik hayvon zo'riqishida, qorin devorining taranglashishida, kindik qo'pol ravishda uzilganda, ich ketishi, qotishida va qusishda ham rivojlanadi.

Kechishi. Kasallik ko'pincha surinkali shakilda kechadi. Vaqt o'tib hayvon kattalashkani sari dabbaning hajmi kattalashib, hayvonda har xil patalogik jarayonlarni keltirib chiqaradi.

Klinik belgilar. Dabba to'qimalariga infeksiya tushganda abscess rivojlanishi mumkin. Bunday abscess mustahkam piogen parda bilan qoplangani sababli o'z –

o'zidan yorilmaydi va kuchli umumiy o'zgarishlar chaqirmaydi. Palpasiyada dabba halqasida va yonida yumaloq, kam og'riqli flyuktuasiya beradigan shish aniqlanadi. Dabba diagnostikasini murakkablashtiradigan surunkali yallig'lanish jarayonlaridan biri bo'lgan nospesifik kindik granulyomasini aytib o'tish lozim. U odatda kindik tizimchasining infeksiyon yallig'lanishi yoki qisilib qolgan charvida granulyasion to'qima o'sishida kuzatiladi.

Davolash ishlari Qoraqolpog'iston Respublikasi Nukus shahridagi "Yakka terak" MFY da yashovchi aholi qaromog'idagi bo'lgan, bir yoshdagi yirik shoxli hayvonda amalga oshirildi. Kindik dabbasida operatsiya turli usillarda o'tkaziladi, bu hayvonning turiga, dabba katta kichikligiga, yopishish mavjudligiga va boshqa sabablarga bog'liq.

Tayorgarlik. Hayvon 10-12 soatlik och dietada saqlandi. Yosh buqachaning kindik oblasti va jinsiy olat boshchasidagi teri xaltasini ishqorli eritmalar (sovinlar) bilan yuvildi.

Fiksatsiya va og'riqsizlantirish. Hayvonning tana vazni hisobga olinib, umumiy og'riqsizlantirish uchun unga 2 ml ksilonit preparati muskul orasiga yuborildi. Hayvon hushsizlangandan keyin uni chalqancha yotgan holda fiksatsiya qilindi. Mahalliy og'riqsizlantirish uchun operatsiya maydonchasiga 0,5% li navokainli qamal amalga oshirildi.

Operatsiya texnikasi. Hamma hayvon uchun operatsiya chizig'i umumiy hisoblanadi. Mahalliy og'riqsizlandirilgandan keyin operatsiya naydoniga 5% li yod bilan qayta ishlov berildi.



Dabba vergul shaklida kesildi va teri bilan jiplashgan dabba xaltasi ajratib olindi. Ajratib olingan dabba xaltasi kesib olib tashlandi. Qorin bo'shlig'iga ichaklar qaytarib solindi va halqa shaklidagi qorinning muskulli qavatining atrofidan 1,5-2

sm chekkasidan, sterillangan ketkut ip bilan tikuv amalga oshirildi. Tikilgan qavat yuzasiga har xil patalogik jarayon sodir bo'lmashligi uchun streptomitsin tabletkasini kukin holatiga keltirib ezildi va tikilgan yuzaga sepildi. Terinig ortiqcha qismi qaychi yordamida kesib olindi va teriga sterillangan ipak ip bilan uzlikli chok qoyildi. Tikilgan teri yuzasiga 5% li yodni tampon yordamida surtildi va to'rt qavatli sterillangan bint bilan, tikilgan yuza yopilib boylam qo'yildi. Operatsiyadan keyin hayvonning umumiy hoatini yaqshilash uchun 0,9% li natriy xlor, askarbin kislotasi, V gruhi vitaminlari aralastirib vena qon tomiridan yuborildi va uch kun mobaynida gentamitsin antibiotigi muskul orasiga yuborildi.

Kindik dabbasining profilaktikasi

Kasallikning etiologiyasi turli xil va bazan tug'ma bo'gani uchun oldini olish qiyin hisoblanadi. Lekin quyidagi yo'lar orqali kasallikning birmuncha oldini olish mumkin. Hayvonlarning ko'payish davrida va ularni suniy yo'l bilan urig'landirganda nasilli buqalarni to'g'ri tanlash (uriqlantirish uchun foydalanilyotkan buqalarda oldin bu kasallik uchramagan bo'lishi) zarur, qorin sohasida bo'ladigan mexanik tasirlarning oldini olish, bug'oz sigirlarni to'yimli ozuqalar bilan oziqlantirib ratsiyoniga etibor berish va hayvonlarning shoxlashishining oldini olish kerak.

Xulosa

Operatsiya qilingan hayvon uch kun mobaynida nazoratda bo'di, to'rtinchi ku'nidan boshlab o'zi ovqatlana bo'shladi.

Kasallik belgilari namayon bo'lishi bilanoq ularni zudlik bilan davolash ishlari amalga oshirilishi zarur. Chunki kelajakda sog'lom va har tomonlama eksterer ko'rsatkichiga to'liq ega bo'lgan chorva hayvonlari etishtirishimiz uchun zamin yaratiladi. Hayvonlarga har xil mexanik tasirotlarning oldini olish, fermer xo'jaligida har oyda veterinar vrach tomonidan despanserizatsiya ishlarini olib borish zarur. Shundagina axoli xonadonlari va fermer xo'jaligida yuqori mahsuldor va eksterer ko'rsatkichlari yuqori chorva hayvonlariga ega bo'ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. X.K. Rustamov, Ya.O. Oqbutayev, B.D. Narziyev "Operativ xirurgiya" Samarqand-1997.
2. D.S. Vohidova "Veterinariya jarrohligi" Toshkent-2016.
3. I. I. Magdi "Operativnaya xirurgiya" Moskva – 1990
4. H.B. Niyozov, N.Sh. Davlatov "Umumiy va xususiy xirurgiya" Samarqand-2014
5. . Internet malumotlari : <https://tltaudit.ru/uz/calcium/chto-delat-esli-u-telenka-gryzha-kursovaya-rabota-gryzha/>
6. <https://oncovet.ru/hirurgiya/pupochnaya-gryzha-u-shhenkov>